

## TARIX FANINI O'QITISHDA SAMARALI USULLAR

Qoyirova Risolatbegim

Zarafshon shahar 3-KBFCHO'IDUM

Tarix fani o'qituvchisi



## USLUBIY TAVSIYASI .

Tarix fani bilan barcha fanlarni mustahkamlaymiz: tarix darsida fanlararo integratsiyalashgan darslarning ahamiyati.

Yurtimizda ta'lrim sohasida olib borilayotgan islohotlar ta'lrim tizimini to'liq axborotlashtirishni, an'anaviy o'qitish mazmunini qayta ko'rib chiqish, o'quv fanlarini integratsiyalash, o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish asosida tashkil etishni taqozo etmoqda. Ma'lumotlar ko'lamining kun sayin o'sishi, o'quvchilarga beriladigan bilimlar hajmining ko'payishiga, sabab bo'lmoqda. Bu o'z navbatida o'quvchilarga psixologik jihatdan og'irlik qilib, ularning bu fanlarga bo'lgan qiziqishlarini susaytirmoqda hamda bilimlarni o'zlashtirish darajasining pasayishi kuzatilmoqda. Bunday salbiy holatlarni bartaraf etish uchun o'quv fanlarini integratsiyalash muammosini muvaffaqiyathi hal etish zarurati lozim..Xususan, Tarix darslarida ayrim sinflardagi darsliklarda ma'lumotlarning ko'pligi ,tarixiy yil va atamalarning murakkabligi o'quvchilarimizda ayrim hollarda fanga qiziqishni susaytirish hollari kuzatiladi.Yoki endigina Tarix fanini o'rganishni boshlagan boshlang'ich sinflarda fanga bo'lgan qiziqishni uyg'otish shuningdek fanni amaliyotda qo'llay olish k ko'nikmasini shakllantirish,o'zlarining qiziqqan fanlariga bog'lab dars jarayonini o'tkazish fanlararo integratsiyalashgan darslarni tashkil etishni taqazo qiladi. Integratsiya - lotincha so'z bo'lib, tiklash, to'ldirish, qismlarni bir butun qilib birlashtirish degan ma'nolarni anglatadi. Ta'lrim muassasasining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda muayyan fanning ichki va tashqi aloqalarini o'rganish, uning boshqa fanlarga tatbiqini

ta'minlash o'quvchining nafaqat bilish doirasini kengaytiradi, balki unga atrof-muhit haqida to'laroq ma'lumotga ega bo'lishi, dunyoqarashining shakllanishi, shuningdek, mayjud bilimlarini amaliyatga qo'llay olishiga imkoniyat yaratadi. Ta'lim jarayonidagi predmetlararo aloqalar o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtiradi. Bunda, o'quvchi o'z faolligini tanish predmet bilimlarini mayjud bo'lgan noma'lum munosabatlarni izlashga yoki aniq o'rnatilgan predmetlararo aloqalar asosida yangi tushunchalarni shakllantirishga safarbar etadi. Ta'limni integratsiyalashning asosiy maqsadi mактабдаго табият ва жамият хақида яхши тасаввур асосларини қо'йиш ва уларнинг ривожланishi қонунларига о'з муносабатини шакллантришdir. Mana shuning uchun maktab o'quvchisi predmet yoki voqeа hodisalarни bir necha tomondan ko'rishi muhim: mantiqiy va emotsiyonal tomondan badiiy asarda hamda ilmiy-ommabop maqolada biolog, so'z ustasi, rassom, musiqachi nuqtai nazaridan va boshqalar. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda yashirin aloqadorlik va bog'lanishlarni aniqlay bilish, fanlararo bog'lanish, ya'ni uzviylikni ta'minlash bugungi kuning eng dolzarb masalalaridan biridir. Chunki fanlararo aloqadorlik ta'minlangan holda, darsni tashkil qila olgan o'qituvchi o'quvchilarda o'zining faniga bo'lgan qiziqishini oshiribgina qolmasdan, mazkur fanni o'zlashtirishga yordam beradi. Fanlararo aloqadorlikni tizimli tarzda amalga oshirish natijasida o'quv-tarbiya jarayonining aloqadorligi sezilarli darajada ortadi. O'quvchilarda dialektik tarzda fikrlash ko'nikmalari shakllandi. Shu bilan bir qatorda, o'quv fanlariga oid bilim va qiziqishlarini rivojlantirishning muhim shartidir.

**"HISTORYROBOTEXNOLOGY"** metodi-Bu metod uchun biz legolardan foydalanamiz.Darsda yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida bundan foydalansak maqsadga muvofiq bo'ladi.Buning uchun o'quvchilarimizni 3 guruhga ajratib olamiz .Birinchi guruhimiz lego bo'lakchalariga flamaster yordamida mavzuga oid asosiy yillar va joy nomlari ,shaxslarning ismlarini yozib chiqishadi so'ngra har bir guruhdan bir nafar ishtiroychi boshchiligida Movorounnahrda Arab xalifaligining o'rnatilishi mavzusi asosida arablarning yurtimiz hududidagi shaharlarni bosib olish jarayonini yillari bilan to'g'ri ketma-ketlik asosida o'zlarining fantaziyalaridan kelib chiqqan Robot shaklida yasashlari kerak bo'ladi.Bunda o'qituvchi ham ketma-ketlikning ilmiy jihatdan to'g'riliqiga ham yasalgan robotning ko'rinishiga baho beradi.

**Afzalliklari:**O'quvchilarda mavzuga oid asosiy tushuncha va yillar unutilmas bo'lib qoladi,ular dars jarayonida zerikishmaydi,guruhlarda hamjihatlikni ta'minlaydi,ketma-ketlikda joylashtirish xotiralarini mustahkamlaydi,robotlarning yasalishi ijodkorlik va kretivlik qobiliyatlarini oshiradi.

**Kamchiliklari:**Dars jarayoni biroz shovqinli bo'ladi,darsdan bir oz chalg`iydi.

## "HISTORYROBOTEXNOLOGY" metodi




2



4



5




### "RUBIK'S CUBE in HISTORY" METODI

Mavzu:Yevropa madaniyati ,Yevropada me'morchilik san'at adabiyot

1-usul : SAVOL HAM JAVOB HAM KUBIK RUBIKDA (THE ANSWER TO THE QUESTION IS AN CUBIC RUBIK)

Bu metodda kubikning rangi bir xil kataklariga savollar qisqa ko'rinishda yoziladi xuddi shunday javoblari ham bir xil rangli katakchalarga yoziladi.yoki bir xil rangli kataklarga mavzuga oid atama boshqa bir xil rangli kataklarga shu atamaning muqobil variantlari yoziladi.O 'quvchilar savollar va javoblarni bir biriga moslashtirishi lozim.kubik rubikda savollar va javoblar aralashtirib yuboriladi,har bir o'quvchida bo'lishi kerak kubiklar o'zları tayyorlashadi savollarni va kubiklar xaltada aralashtirib guruhlarga tarqatiladi ,bu takrorlashlarda ko 'proq qo'l keladi.

|        |   |   |               |
|--------|---|---|---------------|
| S<br>H | L | R | gotika        |
| A      | A | U | uslibida      |
| R      | A | A | qurilgan      |
| T<br>R | X | N | ibodatxonalar |



LAAX BU YERDA XATO JAVOB chunki u Roman uslubida qurilgan.

Afzalliklari: O‘quvchilarning aqlini charxlashga ordam beradi, savollarnio‘zi tayyorlagani ulning fikrlash qobiliyatini o‘siradi va ruhan zavq bag‘ishlaydi

o‘yin shaklida o‘tkazilishi ularni zeriktirmaydi va fanga muhabbat hissini uyg‘otadi. Kamchiliklari:Ayrim bolalarga qiyinchilik tug‘dirishi mumkin.

### “CUNNING DARLING” (AYYOR QADRDONIM) METODI.

Mavzu : 18-19 asrlarda qaraqalpoq adabiyoti ravnaqi

Bu metodimizda o‘quvchilar mavzuni yaxshiroq o‘zlashtirishlari uchun mustahkamlash jarayonlarida qo‘llasak bo‘ladi.Buning uchun o‘quvchilar qiziqriloq bo‘lishi uchun yigitlar va qizlarga ajralgan bir nechta guruhlarga bo‘linishadi va guruhlar navbat bilan doskaga chiqishadi.Doskaga chiqqandan so‘ng aylana bo‘lib kaftlarini kaftlariga qo‘yib turishadi (laylak keldi harakatli o‘yini kabi) va tezkorlik bilan biri ikkinchisini qo‘lini urib mavzuga ma’lumotlarni aytib ketishaveradi navbat bilan lekin kutilmagan paytda guruh ichidagi o‘quvchi ma’lumot o‘rniga o‘zidan keyingi sherigiga savol beradi savolga javob berolmasa chiqib ketadi savol bergen o‘quvchi chiqib ketadi,shu tarzda davom etib oxiri qolgan o‘quvchi keyingi guruhlarning g‘olib ishtirokchilari bilan bellashdi va yakuniy g‘olib aniqlanadi.

Afzalliklari: O‘quvchilarda bu metod hushyorlik va ziyraklikni oshiradi shuningdek tezkorlik bilan javob qaytara olish ko‘nikmasini shakllantiradi.Bundan tashqari bir nechta guruhlarning navbat bilan chiqish qilishi mavzuni yod olish imkoniyatini oshiradi.

Kamchiliklari: O‘quvchilar o‘zaro tortishib qolishlari ehtimoli bor,vaqtini ko‘proq talab qiladi.



### “ SMART XRONOHAMMER” (AQLLI XRONOBOLG‘ACHA) metodi

Mavzu:Slavyanlar,Kiyev Rusi davlati.

Bu metodda o‘quvchilar uchun mavzuga oid yillar yizilgan kartochkalar tayyorlanadi.Sinf 3 guruhgaga bo‘linadi ,bittadan o‘quvchilar chiqishadi ularning qo‘llariga bolg‘acha tutqaziladi,so‘ng ixtiyoriy ravishda bir o‘quvchi chiqib kartochkalarda yozilgan yillarga oid savollar beriladi kamida 15 ta kartochka bo‘lishi kerak savol berilganda qaysi ishtirokchi to‘g‘ri sanani ustiga bolg‘achani ursa 1 ballni qo‘lga kiritadi,o‘yin shu tarzda davom etadi,qaysi guruh ko‘proq ball to‘plasa o‘sha guruh g‘olib bo‘ladi. Kartochkalarga yillar o‘rniga atamalar, shaxslarning ismlarini qo‘llashimiz ham mumkin.

# “SMART XRONOHAMMER” (AQLLI XRONOBOLG ‘ACHA) metodi



|             |           |           |           |         |                     |           |
|-------------|-----------|-----------|-----------|---------|---------------------|-----------|
| VI ASR      | 893-927   | VII ASR   | IX ASR    | 920-935 | 643-701             | X ASR     |
| XI ASR      | VIII ASR  | 882-      | 912-945   | 945-    | X ASR<br>50 YILLARI | 964-      |
| 980-1015    | 988-YIL   | 1019-1054 | 1113-1125 | OLGA    | OLEG                | IGOR      |
| SVYATO SLAV | VLADI MIR | YAROSL AV | RYURIK    | PIAST   | MESHKO              | BOLESL AV |



Afzalliklari: O‘quvchilar bu metod orqali o‘z xotiralarini charxlashadi va tezkor fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishadi. va guruh sha’ni uchun mavzuga yaxshi tayyorlanib savollarga to‘g‘ri javobni tanlashga harakat qilishadi. Kamchiliklari: ishtirokchilar ko‘proq taxminga asoslanib qolishi mumkin shuning uchun bu metod qo‘srimcha sifatida darslarda foydalaniladi mavzu yaxshi o‘zlashtirilgandan so‘ng albatta.


6-sinf o‘quvchilari uchun Tarix faning ajoyibotlarini ko‘rsatish va qiziqarli dars jarayonini tashkil etish uchun amaliy mashg‘ulotlardan na’munalar.

## 1.Mavzu :Qadimgi Yunoniston bobi bo‘yicha.

1 O‘quvchilarning ham ijodiy ham ilmiy imkoniyatlarini ishga solgan holda bolalar tomonidan yunon xudolarining katta hajmdagi rasmlari yaratiladi va ular haqida ba’zi bir ma’lumotlarni berish uchun yorliqlar ham ishlab chiqariladi.Yunonlarning Xudolariga sig‘inadigan joylarini ifodalovchi ta’minlangan to‘r yordamida kichik ibodatxonalar ham quriladi .Bu ijodiy ish o‘quvchilarga mustaqil topshiriq sifatida beriladi yoki sinsda amaliy mashg‘ulot jarayonida tayyorlashadi.Bu amaliy mashg‘ulot o‘quvchilarda mavzuning uzoq yillar davomida xotiralarida muhrlanib qolishiga va hayolot dunyosining eshiklarini kengroq ochilishiga sabab bo‘lsa ajab emas.









2.O'quvchilarga Yunonistonda teatr mavzusi o'tilgandan so 'ng shu mavzuda amaliy mashg'ulot tashkil etishimiz mumkin.Buning uchun 1-navbatda o'quvchilarimiz bilan birgalikda amfiteatrning va undagi tomoshabinlarning maketini tayyorlab olamiz xuddi rasmdagidek :



Va amfiteatrda bolalar bilan birgalikda sahna ko'rinishi namoyishiga tayyorlanamiz buning uchun bizga ssenariy kerak albatta,biz ingliz tilida topgan qisqa hikoyachamizni avval tarjima qilamiz birgalikda so'ng roller uchun o 'z qo'llarimiz bilan kiyim (sodda) tayyorlaymiz va rollarga bo'lib ijro etamiz.

Masalan mana bu qiroq Midas va satira hikoyani:

|  |  |  |  |
|--|--|--|--|
|   |   |    |   |
| A satyr was discovered in the farmlands of Midas, the king of Phrygia. The satyr (a part man, part goat) was called Silenus and he was drunk.                            | Midas looked after Silenus and took him to Dionysus, the god of wine.  | Dionysus was so grateful that his friend Silenus had been returned safely that he offered to grant Midas whatever he wished for. | Midas asked that whatever he touched be turned into gold. The wish was granted and the king was delighted.                       |
|   |   |    |   |
| He touched a twig and it turned into gold. He touched an apple and it turned into gold. When he returned to his palace, he touched the door and it too turned into gold. | However, when it was time to eat, Midas touched some bread and it turned to gold. His wine turned into liquid gold when it touched his lips. | Midas became incredibly hungry and thirsty and begged Dionysus to free him from his gift.  | Dionysus told Midas to wash away his greed in the River Pactolus. Midas did as he was told and his golden touch was washed away. |

3.”Maxfiy agent”-Bu mashg’ulotimizni bajarishimiz uchun biz o‘quvchilar bilan birgalikda qadimgi yunon alifbosini o‘rganishimiz zarur.

Buning afzalliliklari:

1) Tarix darslarida bolalarga yunon hayotining yana bir jihatni to'g'risida ma'lumot beramiz

2) Bundan tashqari, maxfiy xabarlar uchun ishlatalishi mumkin bo'lgan kodni yaratish uchun ham foydalanamiz



| The Greek Alphabet |    |   |    |    |    |
|--------------------|----|---|----|----|----|
| A                  | B  | G | D  | E  | Z  |
| H                  | O  | I | K  | N  | M  |
| EE                 | TH | I | K  | L  | M  |
| N                  | Z  | O | R  | P  | S  |
| T                  | Y  | Φ | X  | Ψ  | Ω  |
| U                  | PH |   | CH | PS | OH |

O ‘quvchilarimizni 3 guruhgaga bo‘lib olamiz har bir guruh qadimgi yunonistondan yurtimizga maxfiy maktub yo‘llashi zarur va maktubni xoh yunon fuqarolari xoh xudolari tilidan yozishadi lekin bu maktublar maxfiy kod bilan muhrlangan guruhlarga makutublar aralash qilib tarqatiladi lekin ehtiyyot bo‘lish lozim bu kodlar maxfiy agentlar tomonidan buzib olib quyilishi mumkin qachonki bir guruh o‘z maktubi kodini ocholmasa boshqa bir guruh ishtirokchilaridan biri ochsa o’sha maxfiy agent hisoblanadi .